ERKINLIK G‘OYASI JAMIYAT TARAQQIYOTINING OMILI SIFATIDA

Shermuhammedova Nigina Arslonovna, O‘zMU professori, falsafa fanlari doktori
Tursinqulov Nurali Anarbaevich, Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: nurturon@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada inson tafakkuri mahsuli bo‘lgan erkinlik g‘oyasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy-falsafiy jihatdan yoritib beriladi. Erkinlik g‘oyasi dolzarb va chuqur falsafiy izlanishlar olib boriladigan inson tafakkurining mahsulidir. Ushbu g‘oya nafaqat mutafakkirlar tomonidan, balki butun falsafiy tendentsiyalar tomonidan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, erkinlik insoniyat fikrini tarannum etishga bag‘ishlash bilan ishlashga majbur qiladigan chinakam falsafiy muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar: erkinlik, jamiyat, tafakkur erkinligi, transandantal, ekzistensial, genesis, dogmatizm

Аннотация. В статье подчеркивается значение идеи свободы, являющейся продуктом человеческого мышления, в развитии общества с научной и философской точки зрения. Идея свободы есть продукт человеческого мышления, являющийся предметом актуального и глубокого философского исследования. Эта идея рассматривалась не только мыслителями, но и всеми философскими течениями, и это одна из настоящих философских проблем, над которой свобода заставляет работать, посвященная прославлению человеческой мысли.

Ключевые слова: свобода, общество, свобода мысли, трансцендентальное, экзистенциальное, генезис, догматизм.

Abstrast. The article emphasizes the importance of the idea of freedom, which is a product of human thinking, in the development of society from a scientificand philosophical point of view. The idea of freedom is a product of human thinking, which is the subject of actual and deep philosophical research. This idea has been considered not only by thinkers, but by all philosophical currents, and this is one of the real philosophical problems that freedom forces to work on, dedicated to the glorification of human thought.

Keywords: freedom, society, freedom of thought, transcendental, existential, genesis, dogmatism

Kirish. Erkinlik tushunchasi inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Erkinlik insonning dunyoga munosabatining eng muhim uslubidir va

uning hayotiy intilishlarining epitsentrida joylashgan. Erkinlik qanday tushunilishidan kelib chiqib, hayotning mazmuni va qadriyatiga oid turli xil tushunchalarni yuzaga keltiradi. Erkinlik va jamiyat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Jamiyat erkinlik g‘oyasi asosida muayyan maqsadlar, manfaatlar asosida uyushgan kishilarning birligidir. Kishilar erkinlik g‘oyasining har qanday darajasiga faqat jamoaga birlashib, yashab, mehnat qilgandagina yetisha oladilar. Erkinlik insonga o‘ziga xos betakror mohiyat, imkoniyat baxsh etadi, jamiyat a’zolarini birlashtiradi, uyushtirib turadi. Erkinlik shaxsning, insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning harakatga keltiruvchi kuchi, taraqqiyotini, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilovchi g‘oyaviy omilidir.

Jamiyat taraqqiyoti va kishilarning erkinligi bir-biri bilan bog‘langan, biri ikkinchisisiz voqe bo‘lmaydigan murakkab jarayonidir. Shuning uchun ham insoniyat tarixining barcha davrlarida olimlar bu jarayonning ichki mohiyatini, qonunlarini anglashga, ularga yo‘nalish berishga harakat qilganlar.

Tafakkur erkinligi taraqqiyot modeli taqozo etadigan eng dolzarb muammolardan biridir. Milliy yuksalish va taraqqiy etish uchun erkin fikr yuritish masalalariga yetarlicha e’tibor qaratish zarur. Chunki tafakkur qanchalik erkin va ijodkor, izlanuvchan va mas’ul bo‘lsa, taraqqiyot modeli ham shunchalik qayishqoq, ijodiy yangilanishlarga moyil va har jihatdan samarador bo‘ladi.

Ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi, degan g‘oya jamiyat taraqqiyotining dialektik mohiyati bir yoqlama talqin etishga olib keladi. Ijtimoiy borliq ijtimoiy ongga katta ta’sir ko‘rsatishi shubhasizdir. Lekin erkinlikni to‘la qamrab oluvchi ijtimoiy ong borliqning oddiy, passiv in’ikosi emas, albatta. Inson voqelikni his qilibgina qolmaydi, balki o‘z manfaatlari yo‘lida unga faol ta’sir ko‘rsatadi, o‘zlashtiradi va o‘zgartadi. Erkinlik darajasiga ko‘tarilgan ong voqealar yo‘nalishini oldindan ko‘ra bilishga, ularni inson, insoniyat maqsadlari va manfaatlari bilan bog‘lashga imkon beradi.

Materiallar va metodlar. Erkinlik butun ijtimoiy tarix davomida insoniyat va inson shaxsi hayotining dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki erkinlik ijodiy, yaratuvchi, faol, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo‘lib, uning tabiati bilan bog‘liqdir. Inson hayoti g‘oyat murakkab aloqadorliklar orqali kechishi, munosabatlari g‘oyat xilma-xil sohalarda namoyon bo‘lishi tufayli uning erkinligi ham ko‘p qirrali. Dastavval, buni so‘z erkinligi, shaxsning tanlov erkinligi, diniy e’tiqod erkinligi va hokazolarda ko‘rish mumkin.

Har qanday faollik tamoyillari harakatlar erkinligiga zamin yaratishi, unga suyanishi kerak. Aks holda boqimandalik illatlari surunkali kasallikka aylanadi. Demak, har qanday xatti-harakat, har qanday intilish o‘z-o‘zidan bunyodkorlik, yaratuvchilik ruhi bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi darkor. Ana shunda erkinlik samarasiz, faoliyatsiz hodisaga aylanmaydi [1, 282].

Erkinlik nafaqat insonning bilish faoliyatining maqsadi, balki barcha qadriyatlarning qiymati, barcha tamoyillarning prinsipidir. Inson erkinligining mohiyati, uning genezisi to‘g‘risida xabardor bo‘lish falsafani nafaqat ilm, kasb va dunyoqarash sifatida, balki hayotning o‘zi, insonning yashash tarzi, uning chuqur mulohazalari va tajribalari dunyosi sifatida tushunishga olib keladi hamda

o‘zini-o‘zi rivojlantirish yo‘lini izlashga olib boradi. Bugun zamon o‘zgardi. Endi hammamiz erkinlik, ochiqlik, oshkoralik sharoitida ishlashga o‘rganishimiz lozim. Barcha rivojlangan davlatlar, dunyo hamjamiyati shunday yashamoqda. [2, **Shavkat Mirziyoyev, Mustaqillikning 28 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi** nutqidan].

Erkinlik insonning transandantal, ekzistensial, mazmunli hayotiy muammolarini, uning borlig‘i va ziddiyatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq fundamental falsafiy tadqiqotlarning asosidir.

Hozirgi rivojlangan G‘arb sivilizatsiyasining asosi inson manfaatlari masalasi bilan bog‘liq erkinliklarni himoya qilish zaminida qaror topdi. Shaxs erkini qonunlashtirish g‘arbning madaniy jihatdan gullab-yashnashiga sabab bo‘ldi. Savdo-sotiq rivojlandi, insonning yaratuvchilik qobiliyati keng namoyon bo‘lib, ilm-fan taraqqiy topdi. Bu svilizatsiya va uning rivojlanish tezligi sifat va salohiyatda ilg‘orlikka intilayotgan barcha mamlakatlarga ta’sir qilmay qolmas edi.

Atoqli faylasuf Andre Jid «Erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun eng avvalo xatti-harakatlarimiz og‘ir oqibatlarga olib kelmasligi kafolatiga ega bo‘lmoq lozim» [3, «Летиратурная» газета. 1989 г, №-29.] degan edi. Erkinlik o‘zida hammani bo‘ysundirmasligi, hammani zabt etmasligi, balki u aql-idrokka bosh egishiligi, uning yo‘rig‘ida yurishi lozim. Ana shundan kelib chiqib, biz eng avvalo erkinlikni tarbiyalashimiz kerak.

Bugun uchinchi renessans va jahon sahnasida o‘zimizni ko‘rsatish paytida siniq va o‘ychan emas, erkin fikrlaydigan, erkin harakat qiladigan, o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishimizni talab qiladi. Haqiqiy erkinlik – yuksak intizom, qat’iy talab, fuqarolik mas’uliyati, qonun ustuvorligidir [4, 353].

Erkinlikning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini g‘oyaviy jihatdan erkin bo‘lgan kishilargina belgilaydi. Inson huquq va erkinliklariga e’tibor bermagan mamlakatda katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yemirilishlar sodir bo‘ladi. Jamiyat hayotidagi barcha yemirilishlarning tomiri ham kishilarning erkinlik g‘oyasi darajasi va holatiga borib taqaladi. Xalqi g‘oyaviy jihatdan erkin bo‘lmagan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo‘lsa ham, hech qachon buyuk davlat bo‘la olmaydi. Bu fikrlar to‘g‘riligi insoniyat jamiyati taraqqiyotining har qadamida to‘la isbotlandi. Shu sababli ham hozirgi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar, mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tib olgan yosh davlatlar jamiyat a’zolarining erkinlik g‘oyasi masalasiga birinchi darajali ahamiyat berib kelmoqdalar. Bu ayrim davlatlarning vaqtinchalik siyosati emas, balki jahon tarqqiyotining asosiy yo‘lidir.

Jamiyatda barcha sog‘lom kishilar aql-idrokka, tafakkur salohiyatiga ega. Bu insonning tabiatidagi barcha jonzodlardan afzalligini, keng amaliy imkoniyatlarini ko‘rsatuvchi asosiy subyektiv sifatdir. Ongli faoliyatning har qanday shakli ham erkinlikning mezonlariga mos kelavermaydi. Erkinlik insonga xos bo‘lgan onglilikning ijobiy ahamiyat kasb etgan holdagi ko‘rinishidir.

Asosiy qism. Jamiyat tafakkur erkinligining pirovard maqsadlarinigina emas, balki uni amalga oshirishning aniq, samarali yo‘llarini bilish ham katta ahamiyatga ega. Bu esa jamiyat taraqqiyotinning ichki qonunlarini qay darajada chuqur va

xolisona bila olishimizga ham bog‘liq. Erkinlik jamiyat hayotidagi ichki zaruriy bo‘g‘lanishlarning tarkibiy qismidir. Jamiyat moddiy hayoti taraqqiyoti bilan inson erkinligining mushtarakligi bu masalada ham yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Muayyan g‘oyaviy erkinliklarsiz jamiyatning siyosiy, ijtimoiy yuksalishi mumkin emas. Jamiyat taraqqiyoti va go‘yaviy erkinlik o‘rtasidagi dialektik munosabatning o‘ziga xos uchta asosi va sababi bor.

Birinchidan, erkinlik irsiy, irqiy, diniy yoki sof milliy sifatgina emas. Har bir shaxsning g‘oyaviy erkinligi ijtimoiy muhit bilan, uning yashash sharoitlari, mehnati va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo‘lishi zaminida shakllanadi va mustahkamlanadi. Erkinlik inson tafakkuriga umuminsoniy qadriyatlar orqali singadi va hayot tajribasi saboqlari asosida mustahkamlanib, uning shuuriga kirib boradi. Irqidan, millatidan, yashayotgan aniq jug‘rofiy sharoitidan qat’iy nazar, inson farzandining barchasida tafakkur erkinligining subyektiv imkoniyatlari bir xildir. Lekin shaxs yashayotgan davr, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sharoitlar bilan taqazo qilinyotgan obyektiv imkoniyatlar turlicha bo‘lishi mumkin. Bu ham tafakkur erkinligining darajasi va imkoniyatlariga ta’sir etadi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida turli mamlakatlar va xalqlarning ma’naviy kamoloti darajasi turlicha bo‘lishi ham shu obyektiv imkoniyatlar, sharoitlar, ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, erkinlik g‘oyasi jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi,hal qiluvchi omilidir.

Jamiayat taraqqiyotidagi yangi tarixiy sharoitlar, zaruriyatlar yangi g‘oyaviy ehtiyojlarni va ularning ro‘yobga chiqishi uchun kengroq imkoniyatlarni ham yuzaga keltiradi. Inson ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida bo‘lgan davrlaridan boshlaboq jamiyat vujudga kela boshlaydi va rivojlanadi. Shundan boshlab jamiyat taraqqiyotining obyektiv va subyektiv asoslari o‘rtasida murakkab dialektik munosabat shakllanadi. Inson yashayotgan obyektiv sharoitlar bilan uning faoliyatiga asos bo‘lgan tafakkur erkinligi o‘rtasidagi dialektik munosabat zaminida jamiyat rivojlanishi amalga oshadi. Jamiyat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyoti uning erkinligi bilan o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisisiz amalga oshmaydigan jarayonga aylandi. Erkinlikning domiy ravishda shakllanib borishi obyektiv qonuniyat bo‘lsa, shaxs erkinligi ham tarixiy jarayon hisoblandi va uning rivojlanishi uchun doimo yangi imkoniyatlar, ehtiyojlar paydo bo‘laveradi.

Har bir tarixiy davrda muayyan sharoitlar, ijtimoiy ehtiyoj va talablar taqozosi bilan erkinlikning rivojlanishi uchun ma’lum imkoniyatlar ham paydo bo‘ladi. Bu imkoniyatlar voqelikka aylanishi uchun uning yangi mezonlari ham kelib chiqadi. Har bir mezon inson erkinligiga bo‘lgan yangi ehtiyojlar va talablarning belgisidir. Bir davrga, millatga, dinga, mafkuraga xos bo‘lgan erkinlik mezonlarini mutloqlashtirish, ularga ko‘r-ko‘rona e’tiqod qilish ham shaxs va jamiyat erkinligi imkoniyatini cheklab qo‘yadi.

Erkinlik g‘oyasi muayyan ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liqdir. Ehtiyoj va zaruriyat yo‘q joyda hech qanday yukslish bo‘lmaydi. Ehtiyojning o‘zi ham erkinlik darajasi bilan belgilanadi. Erkinlik g‘oyasiga intilishning o‘zi ham inson muhiti bilan bog‘langan ehtiyojdir. Erkinlik g‘oyasi rivojlanishining har bir bosqichi tarixiy davrlarning o‘ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Uchinchidan, inson aqlan, axloqan takomillashib, fan va texnika yutuqlarini, jamiyat taraqqiyoti tajribalarini o‘rganib, o‘zlashtirib borgani sari erkinlik g‘oyasining jamiyat hayotiga bo‘lgan ta’siri tobora ortib boraveradi. Natijada, jamiyat taraqqiyotini inson ongli ravishda boshqaradi, degan falsafiy xulosa kelib chiqadi. Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyotini barcha katta-kichik muammolarining mohiyati va ularning istiqboli masalari dastavval kishilar ongida pishib yetiladi, so‘ngra turmushga tadbiq etiladi. Bu g‘oyalar, qarashlar, bilimlar, tajribalar, tasavvurlar tizimi muayyan vazifalarni bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan kishilar tomonidan yaratiladi va amalga oshiriladi. Yangi g‘oyalar, qarashlar asosida amalga oshirilgan faoliyat natijalari ham aqliy umumlashtirilib, to‘laroq, mukammalroq g‘oyalar tizimi yuzaga kelishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Xulosa. Erkinlik bu turli xil qarama-qarshi o‘zgarishlarni vujudga keltiradigan dualistik va antinomik tushunchalarni qamrab oladi. Demak, u ongga yetib borganida nafaqat gnoseologik erkinlikka aylanadi, balki shu holatda yo‘q bo‘lib ketish jarayonini boshdan kechirishi ham mumkin. Biroq, ontologik va ekzistentsial jihatdan qaralganda, erkinlik uzoq muddat davom etadi va albatda bardavom bo‘lishi ham mumkin. Lekin erkinlikka ijodiy harakat qilinmasa, u darhol o‘z o‘rnini yo‘qatadi.

Shuning uchun falsafiy tafakkur tarixida erkinlikning o‘zgarishini uning “paydo bo‘lishi” xususiyati sifatida aniq tekshirish juda muhimdir. Erkinlikning o‘zgarishini umuman erkinlikning sifat o‘zgarishini, uning yangi shakllarining paydo bo‘lishini, uning ichki va tashqi ko‘rinishlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq turli xil tushunchalarning mavjudligini tavsiflovchi tushuncha sifatida ta’riflash mumkin. Erkinlikning o‘zgarishi - bu falsafiy bilimlarni rivojlantirish jarayonida uning turli shakllari, modifikatsiyalarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Borliqning bir nechta usullari erkinlik va unga xos antinomiyalarni tushunishni ko‘rib chiqadigan keng tushunchalarda ifodalanadi.

Jamiyat hayoti, fan, san’at, madaniyat tarixini o‘rganishda shu narsaga amin bo‘lamizki, qachon va qayerda tafakkur nisbatan erkin rivojlangan bo‘lsa, o‘sha yerda taraqqiyot yuz bergan. Aksincha, qayerda va qachon dogmatizm kuchayib, tafakkurda turg‘unlik boshlangan bo‘lsa, o‘sha yerda ijtimoiy taraqqiyot sekinlashgan, to‘xtagan, hatto ortga ketgan. Buni qadimgi tamaddunlar taqdiri, o‘z xalqimizning necha ming yillik tarixi ham ko‘rsatib turibdi [5, 35].

Erkinlik g‘oyasi falsafaning eng murakkab tushunchalarida biri bo‘lib, u falsafiy bilimning barcha tarkibiy qismlari – ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, logika, aksiologiya, etika, estetika va psixologiya bilan o‘zaro bog‘lanadi. Ushbu g‘oyani atroflicha falsafiy tahlil qilish amalda mazkur yo‘nalishlar, tarkibiy qismlar, ilmiy tizimlar tamoyillari va mezonlarini ham nazarda tutib, masalani tadqiq etishni yoki umumiy falsafiy tahlilda turlicha yondashuvlar, nuqtayi nazarlar, tamoyillar mavjudligini ko‘zda tutishini va so‘ng umumlashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy taraqqiyot darajasi erkinlik darajasini belgilaydi. Chunki erkinlik ijodiy, yaratuvchi, faol, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari harakat qiluvchi insonning ehtiyoji bo‘lib, uning tabiati bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Mustaqillikning 28 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/2846

2. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayev. Vatan tuyg‘usi. – T.: O‘zbekiston, 1997. B – 282.

3. «Летиратурная» газета. 1989 г, №-29.

4. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayev. Vatan tuyg‘usi. – T.: O‘zbekiston, 1997. – B. 353.

5. Erkayev A. Tafakkur erkinligi. – T.: Ma’naviyat, 2007. – 35 b.

6. Tursinkulov N. Oliy ta’lim tizimini isloh qilish davr talabi: muammo va yechimlar / Архив научных исследований. 2022. 2(1).

7. Tursinkulov N. A. Erkinlik g‘oyasining falsafiy asoslari / Academic research in educational sciences. 2021. 2(6). – B. 831-838.